

# **FINLAND**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
ONLINE CONFERENCE**

**SUSTAINABILITY OF  
EDUCATION,  
SOCIO-ECONOMIC  
SCIENCE THEORY**





**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



# **SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY**

## **International scientific-online conference**

**Part 12**  
**NOVEMBER 7<sup>th</sup>**  
**COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

**HELSINKI 2023**

SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY: a collection of scientific works of the International scientific online conference (7<sup>th</sup> November, 2023) – Finland, Helsinki: "CESS", 2023. Part 12 –122p.

**Chief editor:**

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

**Editorial board:**

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казақша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY ". Which took place in Helsinki on November 7<sup>th</sup>, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

|   |  |    |
|---|--|----|
| <b>TYPES OF TRANSLATION (THE DIFFERENCES AND ADVANTAGES OF ORAL AND WRITTEN TRANSLATION)</b>  |  |    |
| <b>Abdullayeva Sevinch Akbarovna</b>  |  |    |
| <b>Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li</b>  |  |    |
| JON MAKSELNING "MUVAFFAQIYATLI INSONLAR QANDAY FIKRLASHADI?" ASARIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA QO'LLANGAN TARJIMA USULLARI  |  | 57 |
| <b>Aсадуллаева Маржона Зиоқул қызы</b>  |  |    |
| <b>Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li</b>  |  |    |
| ELVIN BRUKS WHITE QALAMIGA MANSUB "CHARLOTTE'S WEB" ASARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELGAN LEKSIKOLOGIK VA MORFOLOGIK MUAMMOLAR TAHLILI |  | 60 |
| <b>Sobirova Odina Jaxongirovna</b>  |  |    |
| TECHNOLOGIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES  |  | 63 |
| <b>Sharipova Adiba</b>  |  |    |
| <b>U.Mirzaliyev</b>   |  |    |
| XX ASR IKKINCHI YARMI – XXI ASR BOSHLARIDA SIRDARYO VILOYATI AHOLISI TARKIBI  |  | 65 |
| <b>Ш.Р.Абдурасурова</b>   |  |    |
| <b>Г.У.Муллабаева</b>   |  |    |
| ТЕЧЕНИЕ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА У ПАЦИЕНТОВ, ПЕРЕНЕСШИХ ОПЕРАЦИЮ АОРТОКОРОНАРНОГО ШУНТИРОВАНИЯ   |  | 70 |
| <b>D.B.Shaymardanov</b>   |  |    |
| MINI-FUTBOL O'YINI TEXNIKA VA TAKTIK TAYYORGARLIKNI O'ZARO BOG'LQLIGI   |  | 72 |
| <b>Fattoyev Mirjon Husniddin o'g'li</b>   |  |    |
| <b>Ato耶ev Suxrob Hoyotovich</b>   |  |    |
| QUYOSH PANELLARINING ISH SAMARADORLIGIGA CHANGNING TA'SIRI  |  | 76 |
| <b>Nizomova Odina Shavkat qizi</b>  |  |    |
| MAHABXORAT DOSTONIDA ANTOPOLOGIK MASALALAR QO'YILISHI   |  | 79 |
| <b>Nizomova Odina Shavkat qizi</b>  |  |    |
| MAHABXORAT DOSTONIDA IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALAR QO'YILISHI   |  | 81 |
| <b>Ozodbek Badalovich Tursunov</b>  |  |    |
| O'ZBEKİSTONDA TRANSPORT XİZMATLARI FAOLİYATI TAHLİLİ VA XİZMATLAR BOZORIDAGI TENDENSIYALAR O'ZGARISHI   |  | 83 |
| <b>Rasulova Nigina Alisherovna</b>  |  |    |
| <b>Murodova Shaxina Shuxrat qizi</b>  |  |    |
| KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA LISONIY QARASHLARNING SHAKLLANISH JARAYONLARI   |  | 91 |

**KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA LISONIY QARASHLARNING SHAKLLANISH JARAYONLARI**

Rasulova Nigina Alisherovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

[niginarasulova022@gmail.com](mailto:niginarasulova022@gmail.com)

Murodova Shaxina Shuxrat qizi

Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi

[shaxinabonumurodva@gmail.com](mailto:shaxinabonumurodva@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri kognitiv tilshunoslik uning umumiylari xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kognitiv tilshunoslikda lisoniy qarashlarning shakllanining jarayonlari bosqichlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *jahon tilshunosligi, areal lingvistika, lisoniy hodisalar, kognitologiya, kognitiv jarayonlar, turkumlashtirish, konseptualizatsiya, kognitiv mexanizm.*

XXI asr jahon tilshunoslida tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida shakllangan sotsiolingvistika, antropololingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrololingvistika, kompyuter lingvistikasi, areal lingvistika, onomastika, kognitiv tilshunoslik kabi qator sohalar rivojlanmoqda, yangidan yangi nazariyalar, yo'nalishlar shakllanmoqda. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha o'zbek tilshunoslida ham qator tadqiqotlar olib borilib, tilimizning boyligi, kuch-qudrati, ifoda imkoniyatlari, o'ziga xos jihatlari, qirralari har tomonlama ochib berilmoqda.

Tilshunoslikda lisoniy hodisalar tahliliga kognitiv yondashuv til va tafakkur, so'z ma'nosining o'zaro munosabati muammolarini kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish va ularning tilda namoyon bo'lish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Kognitologiya – bilim va tafakkur, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o'rganish, anglash, idrok qilish natijalari haqidagi fan bo'lib, u to'plangan ma'lumotlarning muayyan tizimiga aylanganki, bizning ongimizda ma'lum tarzda joylashgan va o'z tabiatiga ko'ra tafakkurning kognitiv jarayonlaridan tarkib topgan. Shuningdek, kognitiv fan bilim tuzilishi jarayonlarini o'rganish, turli xil axborotlarni qayta ishlash, saqlash, foydalanish, tashkillashtirish va to'plash hamda bu tuzilmalarning inson miyasida shakllanishini o'rganishni ham o'z ichiga oladi[1]. Kognitiv tilshunoslik-til va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyonni kontseptuallashtirish va turkumlashtirishda tilning rolini, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini va til va ularning o'zaro ta'siri shakllarini o'rganadigan tilshunoslik yo'nalishi.

Turkumlashtirish deganda olingan bilimlarni tartibga solish jarayoni tushuniladi, ya'ni yangi bilimlarni inson ongida mavjud bo'lgan ma'lum sarlavhalar bo'yicha taqsimlash va ko'pincha bu shaxs ona tili bo'lgan til toifalari bilan belgilanadi. Konseptualizatsiya —

bu real yoki xayoliy olamning ba'zi bir hodisasining kognitiv xususiyatlari to'plamini (shu jumladan toifali) aniqlash jarayoni bo'lib, ular odamga ushbu hodisa haqida biroz aniqlangan tushuncha va g'oyaga ega bo'lish, yodda tutish va yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish imkonini beradi va uni boshqa hodisalardan ajrata oladi. Umuman olganda, kognitivizm — bu fikrlash jarayonlarini boshqaradigan, umumiylarni o'rganishni birlashtirgan fanlar majmuidir. Shunday qilib, til fikrlash jarayonlariga kirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Insoniyat tajribasi, uning tafakkuri aynan tilda muqimdir; til — kognitiv mexanizm, ma'lumotni maxsus kodlashtiradigan va o'zgartiruvchi belgilar tizimi.

Kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyekti til hisoblanadi. Bu fan tilni —inson ongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi va tashkil qiluvchi vosita sifatida tadqiq etadi. Zero, til kognitiv faoliyatning asosini tashkil qiladi. A.V.Kravchenko to'g'ri ta'kidlaganidek, til — bilishning ajralmas qismi bo'lib, madaniy, ruhiy, aloqaviy, vazifaviy omillarning o'zaro aloqasini aks ettiradi. N.N.Boldirev fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi —tilni tadqiq qilish orqali bilimlarning har xil tuzilmalariga kirib borish hamda til va ular o'rtasidagi aloqadorliklarni izohlashl hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi til sistemasining insonlarni o'rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini, urfodatlarini o'rganishda, anglab olishdagi ishtirokini aniqlash, inson ongidagi mavjud tajribaga suyanib, to'plangan bilimni ma'lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning rolini tadqiq etishdir[2]. O'zaro bog'liq bo'lgan, biri ikkinchisini to'ldiruvchi bu yo'nalishlarning maqsadi inson nutqi va uning aloqaviy sifatlarini, aloqa, xabar, ta'sir etish kabi ijtimoiy vazifalarning voqelanishida lisoniy vositalarning o'rni va imkoniyatlarini aniqlashdir.

Shunday qilib, kognitiv fan — bu bilimning mustaqil sohasi bo'lib, u insonning axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va foydalanishini o'rganadi. Ye.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, kognitiv fan fikrlash, bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash muammolari bilan shug'ullanuvchi ilmiy yo'nalishlar uchun — soyabon termin vazifasini o'taydi. U kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik, kognitsianing falsafiy nazariyasi, tilning mantiqiy tahlili, sun'iy intellekt nazariyasi, neyrofiziologiya kabi sohalarni birlashtirishini va bugungi kunda kognitiv antropologiya, kognitiv sotsiologiya, hatto kognitiv adabiyotshunoslik shakllanib ulgurganligini qayd etadi. Bu fan maxsus dasturlar tatbig'i uchun bilim va axborot bilan bog'liq kognitsiya deb yuritiluvchi kognitiv jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Kognitsiya — subyektning bilish, idrok qilish, ta'riflash qobiliyatidir. N.N.Boldirev fikricha: "Kognitsiya —bu ma'lumotlarni, bilimlarni olish, qayta ishlash, eslab qolish, xotirada tiklash va foydalanishning har qanday ongli yoki ongsiz jarayonidir". U o'zida quyidagi psixologik jarayonlarni mujassamlashtiradi:

- 1) dunyoni qabul qilish;
- 2) kuzatish;
- 3) kategoriyalarga ajratish;
- 4) tafakkur;
- 5) nutq;

6) tasavvur va boshqalar[3].

Ko'rinishdagi aniq ifodalarda namoyon bo'ladi va so'zlovchi lisoniy ongida aks etgan lisoniy hodisalarni keng doirada tadqiq etish bilan bog'liq bo'ladi. Inson omili, shaxs va til munosabatiga e'tibor kuchayib borayotganligi kognitiv tilshunoslik mazmun-mohiyatini voqelik faktlarini idrok etish, voqeа-hodisalarning yuzaga kelish sabablarini bilish, tushunish, ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga oid yangi tushunchalar va kategoriyalarning hosil bo'lishiga zamin hozirlamoqda. Bu esa o'zbek kognitiv tilshunosligining mazmun mundarijasini aniq belgilab olish, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, o'ziga xos tadqiq va tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida aytish joizki, inson tafakkuri, zakovati – eng oliv ne'mat. Fikrlash qobiliyati esa insonning barcha muvaffaqqiyatlari asosi. Tafakkur orqaligina u obyektiv borliqni taniydi, mantiqiy bilishga erishadi. Insonning ong va shuuri voqelikni idrok etish, qabul qilish jarayonini boshqaradi. Ong, tafakkur haqida fikr yuritar ekanmiz, bu murakkab insoniy hodisalarning nutq bilan, kishi, xalq tili bilan chambarchas bog'liq ekanligini, tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud emasligini yana bir karra ta'kidlash zarur[4]. Ayni mana shu sabab tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Tilshunoslikda lisoniy hodisalar tahliliga kognitiv yondashuv til va tafakkur, so'z ma'nosining o'zaro munosabati muammolarini kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish va ularning tilda namoyon bo'lish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абдуллаева, Г. Г. (2022). COGNITIVE PERSPECTIVES OF TRAINING GOOD VOCABULARY LEARNERS. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(1).  
<https://tadqiqot.uz/index.php/language/article/view/4566>
2. Скребцова, Т. Г.. Когнитивная лингвистика: Курс лекций.. Филологический факультет СПбГУ, 2011 — 256 bet. ISBN ISBN 978-5-8465-1037-1.
3. Болдырев Н. Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики / Вопросы когнитивной лингвистики. - 2004. - № 1 - С. 23.
4. Abdullayeva, G. (2021). Yosh tarjimonlarda sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6). [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/3037](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3037)
5. Ahrorovna, N. N., & Niginabonu, Y. (2023). EFFECTIVE STRATEGIES FOR VOCABULARY LEARNING IN FOREIGN LANGUAGES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5).
6. Djumaeva, N. (2022, January). Food magic in english and uzbek fairy tales. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 68-70).

[https://scholar.google.com/scholar?cluster=2883758618840225386&hl=en&oi=scholarrDjum\\_aeva](https://scholar.google.com/scholar?cluster=2883758618840225386&hl=en&oi=scholarrDjum_aeva)

7. Djurabayevna, D. N. (2022). Expression of anthropocentrism in the image of magical objects in fairy tales. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 1043-1047.
8. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. -B.175.
9. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Muhiddinova Marjona. (2023). INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 179-185. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/3920>
- 10.Kurbanov, S. S., & Saparova, M. R. (2021). BADIY ASAR JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA QARG'ISH ANGLATUVCHI DISFEMIZMLARNING PERSONAJLAR NUTQIDA BERILISHI. Academic research in educational sciences, 2(4), 1246-1251. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiy-asar-jozibadorligini-oshirishda-qarg-ish-anglatuvchi-disfemizmlarning-personajlar-nutqida-berilishi>
11. Rasulov, Z. (2022). INFORMATION FORMING TOOLS (FACTORS) IN THE STRUCTURE OF DISCOURSE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 15(15).
- 12.Rasulov, Z. (2022). О дискурсивном анализе в современной лингвистике. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).
- 13.Rasulova, N. A. (2023). OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MATERIALLARI TARJIMASIDA LISONIY SHAXS TUSHUNCHASINING AHAMIYATI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(18), 267-269.
- 14.Ubaydullayeva Muattar O'rinnbekovna. (2022). Ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no munosabatlari: ko'p ma'nolilik va omonimiya. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 300-304. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/116>
- 15.YULDASHEVA, F. (2023). ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 31(31). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9271](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9271)
- 16.Yusupova Orziboni Sunnatovna. TILSHUNOSLIK VA TABIIY FANLAR. (O'quv qo'llanma). Samarqand - 2021